



## MATERIALLAR TO'PLAMI

**GENDER MODELLAR VOSITASIDA O'QUVCHI  
HAMDA TALABA-YOSHLARDA MADANIY XULQ-  
ATVORNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI:  
MUAMMOLAR, YECHIMLAR**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**2024 YIL, 21-22 MAY**

повышение квалификации в сфере информационной безопасности, путем создание программ обучения, в том числе путем создания академий развития кибернавыков.

#### ЛИТЕРАТУРА:

1. Махмудов А. Х., Анарбаева Ф. У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – С. 476.

2. Махмудов А. Х., Абдурахмонов З. Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 97-99.

3. Е. Дорохова и др., Кибернасилие в отношении женщин и девочек в странах Западных Балкан: отдельные тематические исследования и подход к управлению кибербезопасностью, Женевский Центр по Управлению Сектором Безопасности, 31 марта 2021 г.

4. CISOMAG, 8 марта 2020 г., Устранение разрыва в навыках посредством большей представленности женщин в сфере кибербезопасности

5. Вервир и Ди Меко, Гендерная дезинформация, демократия и необходимость нового цифрового социального контракта.

### GENDER MODELLAR VOSITASIDA TALABA-YOSHLARDA MILLIY MADANIY XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISHGA OID TAJRIBALAR VA XALQARO YONDASHUVLAR

**Adizov Baxtiyor Raxmonovich**

p.f.d., professor BuxDu huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori

**Umedjanova Malika Lukmanovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedراسi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada gender - xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati ko‘rsatilgan. Har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlanishidadir.

**Kalit so‘zlar:** gender, erkak va ayol huquqlari, huquqiy himoya, huquqiy kafolat, tenglik, fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, qonuniy huquq va erkinliklar, milliy qonunchilik.

**Аннотация:** в данной статье показан социальный аспект гендера - отношения между мужчинами и женщинами во всех сферах жизни и деятельности общества, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, образование и науку. Тот факт, что представители обоих полов смело преследуют свои мечты и цели, говорит о том, что им следует предоставить одинаковые возможности для улучшения качества жизни. Одним из требований развитого общества является обеспечение равных прав мужчин и женщин.

**Ключевые слова:** гендер, права мужчины и женщины, правовая защита, правовые гарантии, равенство, международный пакт о гражданских и политических правах, законные права и свободы, национальное законодательство.

**Annotation:** this article shows the social aspect of gender - relations between men and women in all spheres of society's life and activities, including politics, economy, law, ideology and culture, education and science. The fact that representatives of both sexes are boldly pursuing their dreams and goals suggests that they should be given the same opportunity to improve the quality of life. One of the requirements of a developed society is the provision of equal rights for men and women.

**Key words:** gender, male and female rights, legal protection, legal guarantee, equality, international covenant on civil and political rights, legal rights and freedoms, national legislation.

2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma’qullangandi.

Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o‘rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog‘lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, gender - xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati ko‘rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish

uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlanishidadir.

Darhaqiqat, qadim yunon Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont o‘z asarlarida qo‘llagan holda: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb ta’kidlagan. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo‘lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e’tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e’tibor beradigan bo‘lsak, eng avvalo, gender tenglikning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatlarini tahlil etish joiz. Albatta, barchamizga ma’lumki, 1948-yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e’tirof etilgan bo‘lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”, deya ta’rif berilgan. BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta’kidlanishicha, “Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun ushbu Paktga ko‘rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta’minlash majburiyatini oladi”. Aynan mazkur xalqaro norma “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” qonunning 2-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir, - degan moddaning amaliy va huquqiy asosidir. Demak, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume’tirof etilgan talablaridan kelib chiqib o‘z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining sababi ham asoslidir.

Mazkur asosning yana bir huquqiy kafolati bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», deb belgilanganligidir. Demak, gender tengligining ham xalqaro huquqiy ham, konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham

anglatadi. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas. Shu bois ham, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish”ga alohida e'tibor qaratilgan.

Xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Komissiyaning asosiy vazifalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu sohada qilingan ishlar bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioya etish sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iborat.

Qonuniy huquq va erkinliklardan foydalanishda jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik ayrim ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

Mazkur qonunning 5-moddasiga muvofiq, quyidagilar jins bo'yicha kamsitish hisoblanmaydi:

- bola tug'ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash;
- qonunda belgilangan tartibda muddatli harbiy xizmatga chaqirish;
- gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish;
- xotin-qizlar va erkaklarning mehnatini muhofaza qilishda reproduktiv salomatligini saqlash xususiyatlari;
- kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish;
- qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini tartibga solishda farqlarni belgilash.

Qonunning 13-moddasida davlat organlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlari hamda 15-moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishtiroklari belgilandi.

Agar shaxs o'zini jins bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega

bo‘lib, bunda jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmaslgi, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi to‘g‘risidagi ishlarni sudlarda ko‘rish chog‘ida advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmatlarga haq to‘lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning xohishiga ko‘ra davlat hisobidan qoplanishi hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgila

Hayot shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanib, “yo oila, yo ish”, - degan fikrlar gender tengligiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘rib turibmizki, rivojlanishning eng o‘tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengiligiga erishish eng og‘ir masalalardan biridir. Ming afsuski, xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar va hatto yo‘qotishlar (Bunda ko‘pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatni oldini olishda qonunning 25-moddasida Uy mehnati jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas, u ayollar va erkaklar tomonidan teng darajada amalga oshiriladi”-deb belgilangan. Aynan 21-modda esa, mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini belgilagan. Bugun xotin-qizlar bandligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan. Xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratish oxirgi yillarda sezilarli oshdi.

E‘tiborli jihati shundaki, bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida o‘zgarishlar, siljishlar, hattoki yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, siyosatda ayollar faollashganining guvohimiz ya‘ni davlat boshqaruvida, sudlov tizimida, ichki ishlar, bojxona tizimida ham xotin-qizlarning mehnat qilayotgani ayni haqiqatdir. Zero, bu borada mazkur qonunning 4-bobi: “Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari” ga bag‘ishlangan hamda 18-moddada saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash huquqi ya‘ni, xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga egaligi qayd etilgan. Siyosiy partiyalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq

deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta‘minlanadi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Aslida ayollarga nisbatan har qanday zo‘ravonlik barcha aqlli jamiyatlarda, jumladan, Islomda ham qoralanadi. Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi. Ularga nisbatan hech qanday kuch, zo‘ravonlik, urish, kaltaklashni ishlatib bo‘lmaydi. Nasihat qilish, u kor qilmasa, sekin turtib ogohlantirish, u ham kor qilmasa, yotoqlarida tark qilish ko‘zda tutilgan.

Shu bois ham, qonun 32-moddadan iborat bo‘lib, 29-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi hamda 30-moddada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga etkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlashi qayd etilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 21 iyundagi Oliy Majlis Senatidagi nutqi.
2. BMT Inson rivojlanishi to‘g‘risidagi ma‘ruza. – Tashkent: 1996.
3. Saribayeva U.S. O‘zbek oilalarida gender tenglik va milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. - T.: “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnali 2020 yil 5- son, 3-6 b.
4. Lukmanovna U. M. Hadislarda ma‘naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o‘quvchilarda shakllantirishning nazariy asoslari //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 158-161.
5. Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 271-276.
6. Umedjanova, M. (2023). Talabalarni aksiologik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlashning amaliyotdagi mavjud ahvoli. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 43(43).
7. Umedjanova, M. (2022). Oliy ta‘lim tizimida pedagogik ta‘lim klasteri. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8).

22	<b>Hasanova Gulnoz Qosimovna</b>	Gender modellar vositasida gender-inklyuziv sinfni yaratish strategiyalari	107
23	<b>Норбадалов Сорбон Соатмурадович</b>	Формирование опыта социокультурной деятельности у студентов с помощью гендерных моделей	112
24	<b>Xakimova Sanobar Samandarovna</b>	Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchilarning gender yondoshuvi	117
25	<b>Махмудов Абдулхалим Хамидович</b>	Методологические аспекты гендерного вопроса в сфере информационной безопасности	123
26	<b>Adizov Baxtiyor Rahmonovich Umedjanova Malika Lukmanovna</b>	Gender modellar vositasida talaba-yoshlarda milliy madaniy xulq-atvorni shakllantirishga oid tajribalar va xalqaro yondashuvlar	126
27	<b>Алибаев Дониёржон Шухратжонович Матякубова Динара Азамат кизи</b>	Механизмы духовного развития учащихся начальных классов через взаимодействие школы, семьи и махалли на основе гендерного подхода	132
28	<b>Насимова Шахноза Ихтиёр кизи</b>	Механизмы развития национально-культурного поведения учеников на основе гендерного подхода	134
29	<b>Медетова Раушан Мамадияровна</b>	Стратегия развития культуры толерантности у будущих учителей в основе гендерного подхода	137
30	<b>X.Nurbayeva</b>	Gender streotiplar gender madaniyatning tarkibiy qismi sifatida	141
31	<b>Muhammadjon Quronov</b>	O‘quvchi qizlar tarbiyasida gender differentsiatsiyasining ayrim jihatlari	147
32	<b>Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna</b>	Gender yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi milliy madaniy xulq-atvorni rivojlantirish yo‘llari	151
33	<b>B.M.Xakimova</b>	Zamonaviy “gender” atamasi va o‘smirlarni mustaqil qaror qabul qilishiga yo‘naltirishning gender muammolari	154